



PIRLS XALQARO TADQIQOTINING MAMLAKATIMIZ HAYOTIDAGI O'RNINI VA AHAMIYATI

Sotiboldiyeva Shoxista

Imamova Sevara

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasining o'qituvchisi

Toshkent Amaliy fanlar universiteti talabasi

e-mail: .sh.sotiboldiyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14762001>

Annontatsiya. Ushbu maqolada PIRLS haqida umumiy tushuncha vazifalari maqsadlari haqida tushuntirilib otilgan. PIRLS xalqaro tadqiqotining mamlakatimiz hayotidagi orni va ahamiyati va boshlang'ich sinflarda qanday qo'llanishi, O'zbekistondagi PIRLSning ahamiyati haqida yoritilib beriladi.

Kalit so'zlar

PIRLS, maqsad, vazifa, hamkorlik, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim sifatini oshirish va baholash, PISA, xalqaro assotsiatsiya.

Аннотация.

В этой статье представлен обзор PIRLS и объяснены цели задач. Будет объяснена роль и значение международных исследований PIRLS в жизни нашей страны и то, как они используются в начальных классах, значение PIRLS в Узбекистане.

Ключевые слова.

PIRLS, цель, миссия, сотрудничество, преподаватель, ученик, улучшение и оценка качества образования, PISA, международная ассоциация.

Annotation.

This article provides an overview of PIRLS and explains the objectives of the tasks. The role and importance of PIRLS international research in the life of our country and how it is used in primary classes, the importance of PIRLS in Uzbekistan will be explained.

Key words.

PIRLS, goal, mission, cooperation, teacher, student, improvement and assessment of educational quality, PISA, international association.

KIRISH.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro

tadqiqotlarni tashkil etish asosida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarorida eng ustuvor vazifa qilib quyidagilar olindi:

- xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'qish;

- PISA, PIRLS, baholash dasturi yo'nalishidagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish.

O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimida olib borilayotgan amaliy ishlar, ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

PISA - o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, asosiy maqsadi - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matematika, tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko'rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalarni hosil qilishga undashdir. Ushbu dastur 1997 yilda joriy etilgan bo'lib, har uch yilda bir marta o'tkazib kelinadi. PISA dasturi ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatib, har bir davlat o'tkazgan tadqiqot natijalari asosida o'zining ta'lim sohasidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlab, boshqa davlatlarga



nisbatan mavqeyini taqqoslaydi. Ta'lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirishda o'z strategiyasini belgilab oladi.

PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. PIRLS - tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnini o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.

MUHOKAMA

PIRLS dasturi 2001-yilda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. O'qish savodxonligi o'quvchilarning ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyatini o'sishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda.

Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohaları rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Davlatimizga ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. O'quvchilarni xalqaro PISA, PIRLS baholashning asl mohiyati o'quvchilarda tafakkur uyg'oqligi, ularni ixtirochi, ijodkorlikka o'rgatishning asosiy belgisi hisoblanadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimiga xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishning "Milliy dasturi"ni yaratish hozirgi kun talabiga mos keladi. Yana shuni aytish joizki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi.

Ushbu dasturning ko'p yillar davomida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to'ladi. Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash uchun; Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotda o'quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish o'rinlidir. Raqamli formatga o'tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn o'qishni kompyuterda baholash kabi o'zgarishlar ham ko'zda tutilgan.

Xulosa

Ushbu tadqiqot sinovi har 5 yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, 2021-yil uchun mo'ljallangan tadqiqotlarda O'zbekistonning boshlang'ich sinf o'quvchilari ham ishtirok etishi o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu muhim vazifani amalga oshirish o'qituvchidan ta'limga yangicha yondashuvni va faollikni talab etadi.

O'quvchini xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga tayyorlashda o'qish darsi jarayonida darslikda berilgan har bir matn yuzasidan o'quvchi o'zi mustaqil ravishda ushbu matndan kelib chiqib savollar tuzish vazifasi qo'yilsa, har bir bolaning berilgan matnini qay darajada o'zlashtirganligini uning tuzgan savollari orqali bilib olish mumkin. Bunda o'quvchining dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi va obrazli tafakkuri har bir dars davomida rivojlantirilib boriladi. Dars jarayonida bola to'g'ri yoki noto'g'ri fikrini tinglab, to'g'ri xulosani hayotiy faktlar orqali chiqarishga o'rganib boradi..

Foydalanilgan adabiyotlar



1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.03.2021 y. 07/21/5032/0226-son.
2. Xabibullaev P., Bo'ydedaev A., Baxromov A. va boshq. Fizika. Umumiy o'rta ta'lim maktablaring 8-sinfi uchun darslik. -T.: O'qituvchi, 2019.
3. Matkarimov M.A. "Kompetensiyaviy yondashuvli o'quv jarayonining asosiy jihatlari. Innovasion g'oyalar, ishlanmalar amaliyotga: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. - Andijon, 2020 yil 27-28 may.
4. <http://timssandpirls.bc.edu> sayti-TIMSS&PIRLS International Study Center.
5. <http://www.edu.uz>- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi portali.
6. <http://www.uzedu.uz>- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi veb sayti.
7. <http://www.eduportal.uz>- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi axborot ta'lim portali.